



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz
@ferghana_medical_institute
@farjsti

25-
dekabr
2023-yil
dushanba

№9-10(26)

Xushxabar

DIPLOMIMIZNI BUTUN DUNYO TAN OLADI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ta'lim dasturi 5 yil muddatga ECAQA agentligi tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Endilikda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutini tamomlagan bitiruvchilar dunyoning barcha davlatlaridagi nufuzli universitetlarda magistratura, ordinatura va doktorantura ta'lim yo'nalishlarida o'qish imkoniyatini qo'lga kiritishadi. Shu bilan bir qatorda, diplom barcha davlatlarda xalqaro tan olinadigan statusga ega bo'ladi.

Aytish lozimki, ECAQA (Eurasian center for accreditation and quality assurance) agentligi Butunjahon Tibbiy Ta'lim Federatsiyasining (World Federation for Medical Education) butun dunyoda tan olingan agentliklari ro'yhatiga kiradi va xalqaro nufuzga ega tashkilot hisoblanadi.

DAVLAT STIPENDIYALARI SOVRINDORLARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, har yili mamlakatimizda qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli o'quvchilar, talabalar va magistrantlarni qo'llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Har yili davlat oliy ta'lim muassasalarida a'lo baholarga o'qiyotgan va ilmiy (ijodiy) ishlarda faol ishtirok etayotgan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalari tayinlanib kelinmoqda.

Nevrologiya va psixiatriya kafedrasida katta o'qituvchisi Muzaffar Zokirov ilmiy rahbarligidagi Davolash ishi fakultetining 5-bosqich talabasi Oqilbek Muhammadjonov Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori bo'ldi.

Yaqinda O.Muhammadjonov O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi stipendiyasi sohibiga ham aylangan edi.

Shuningdek, Tibbiy va biologik kimyo kafedrasida assistenti Nigoraxon Dehqonova ilmiy rahbarligidagi Davolash ishi fakultetining 5-bosqich talabasi Nodirabegim Jamoliddinova Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasini oladigan bo'ldi.

Xabaringiz bor, N.Jamoliddinova noyob iste'dodi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda fan-ta'lim sohasida olib borgan izlanishlari yurtboshimiz tomonidan e'tirof etilib, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi.

Erishilgan muvaffaqiyat bilan ularni qutlaymiz!

Obidjon Ibragimov — bizning faxrimiz!


Yaqinda Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida belbog'li kurash bo'yicha Jahon kubogi musobaqalari bo'lib o'tdi. Unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan kurashchilar o'z vazn toifasiga ko'ra Jahon kubogi uchun kuch sinashdilar. Mazkur xalqaro musobaqada institutimiz Davolash ishi fakultetining 5-bosqich talabasi Obidjon Ibragimov 57 kg vazn toifasida ko'plab sportchilar bilan kurashib, faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi hamda bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Erishilgan g'alaba bilan Obidjon Ibragimov va uning barcha murabbiylarini, ota-onasini samimiy tabriklaymiz!

Ma'lumot uchun, Obidjon Ibragimov kurashning erkin yo'nalishda 3 karra O'zbekiston chempioni, Qozog'istonda o'tkazilgan 18-ochiq chempionat kumush medal sohibidir.

Shokirjon NORMAHAMADOV.

E'tirof



Sog'liqni saqlash vaziri talabalar bilan ochiq muloqot qildi

Sog'liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov ishtirokida tibbiyot tizimidagi yosh rahbar va shifokorlar, shuningdek, talabalar bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi. Oflayn va onlayn tarzda o'tgan anjumanda sohadagi minglab yoshlar, xususan, chet elda tahsil olayotgan yigit-qizlar qatnashdi.

Tadbirda yoshlarning tashabbuslari tinglandi. Yakunlanayotgan yilda erishilgan natijalar sarhisob qilindi. Shuningdek, kelgusi 2024-yilda tizimda yoshlar bilan bog'liq amalga oshiriladigan islohotlar haqida ma'lumot berildi.

Uchrashuvda aytilgan ayrim iqtiboslar bilan tanishing:

Oxirgi 7-yilda tibbiyot tizimini isloh qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborlari natijasida katta o'zgarishlar qilindi. Eng avvalo, sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi 2016-yilga nisbatan 5 baravar oshirildi (5,5 trillion so'mdan 30 trillion so'mga). Hududlarda 2 mingta poliklinika, oilaviy shifokor va mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi. Respublika ixtisoslashtirilgan markazlar tomonidan yangi davolash va diagnostika usullarini Markazda va hududlarda tatbiq qilish orqali, aholiga tibbiy xizmatni yanada yaqinlashtirmoqda.

Avvallari faqatgina chet elda bajarilgan yuqori texnologik operatsiyalar nafaqat Toshkentda, balki viloyatlar markazlari, hatto, tumanlar darajasida bajarilishi yo'lga qo'yilmoqda. Milliy tibbiyotimiz tarixida ilk bor robotoxirurgik amaliyotlar tatbiq etildi. Mana shu yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarida aynan Siz kabi yoshlarning ham faol ishtiroki meni quvontirmoqda.

2023-yil o'zbek tibbiyotida yoshlarga berilgan keng imkoniyatlar bilan ham esda qolarli bo'ldi, deya olamiz. Sog'liqni saqlash tizimida muhim transformatsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda. AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya Respublikasi, Hindiston, Vengriya, Ozarbayjon, Rossiya, Belarus bilan

hamkorlikda forumlar, haftaliklar, oyliklar o'tkazildi. Joriy yilda Toshkent tibbiyot akademiyasi va Buxoro davlat tibbiyot institutlarining yangi binolari foydalanishga topshirildi. Yurtimizdagi qator tibbiyot oliy o'quv yurtlari xorijda o'z vakolatxonalarini ochdi. O'zbekiston tibbiyot ta'limida ilk bor hamshiralarga oliy ta'lim beruvchi Hamshiralar akademiyasiga asos solindi. Uning tarkibida Turkiya Sog'liq bilimlari universiteti bilan qo'shma fakultet tashkil qilindi. Shuningdek, O'zbekistonda ilk bor talabalarga "Sog'liqni saqlash vaziri stipendiyasi" joriy qilindi.

Hurmatli Prezidentimiz yosh mutaxassislarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab bir qator imkoniyat, imtiyozlar bermoqdalar. Jumladan, tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan, chet tilidan xalqaro sertifikatga ega bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Yosh iqtidorli shifokorlarning oylik maoshlariga 1 mln so'mdan qo'shimcha ustama berilmoqda. O'lis va chekka hududlarda faoliyat yuritish uchun borgan mutaxassislarga har oyda 2 mln so'mdan qo'shimcha maosh, uy-joy berilib, klinik ordinaturaga imtihonsiz qabul qilinmoqda. Fan nomzodlarining oylik maoshlariga 30 foiz, fan doktorlariga 60 foizgacha qo'shimchalar to'lanmoqda.

Joriy yilning o'zida 1200 nafardan ziyod mutaxassislarning xorijda malaka oshirishi bilan bog'liq xarajatlar vazirlikning maxsus fondi tomonidan to'lab berildi. "El-yurt umidi" jamg'armasi ko'magida tibbiyot yo'nalishida 72 nafar yoshlarimiz AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Koreya, Turkiya, Italiya kabi davlatlardagi universitetlarda bakalavriat, magistratura, rezidentura va doktoranturada tahsil olmoqda. Bundan tashqari, grant asosida 200 nafardan ziyod yoshlarimiz xorijiy universitet va klinikalarda ilmiy izlanishlar olib boryapti.

2024-yilgi rejalar

AQSHning Vebster universitetiga "Tibbiyot muassasalarini tashkil etish va boshqarish" dasturi bo'yicha 50 nafar o'zbekistonlik yosh mutaxassis davlat hisobidan o'qishga yuboriladi.

11 ta tibbiyot oliy ta'lim muassasalari va 74 ta tibbiyot texnikumlarida bepul til o'rgatish markazlari tashkil etiladi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari kabi, tibbiyot tizimida ishlayotgan yoshlarda IELTS, TOEFL va unga tenglashtirilgan til sertifikatlariga ega bo'lganlarni har oyda 1 mln so'm miqdorida rag'batlantirish mexanizmlari joriy etiladi. Yoshlar orasida (30 yoshgacha) doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan har bir ilmiy izlanuvchiga va uning ilmiy rahbariga 30 mln so'mdan pul mukofoti beriladi. Agar izlanuvchi ayol kishi bo'lsa 50 mln so'm bersak, menimcha adolatli bo'ladi.

100 nafar bakalavriat va 100 nafar tibbiyot texnikumlari talabalari, 50 nafar magistr va klinik ordinatura talabalari uchun xorijiy davlatlarning (Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya, Fransiya, Yaponiya) universitet klinikalarida vazirlik mablag'lari hisobidan "Yozgi amaliyot maktablari" doimiy ravishda tashkil etiladi.

Iqtidorli 20 nafar magistrantlarni xorijiy davlatlarning (Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya, Fransiya, Yaponiya) universitetlarda vazirlik mablag'lari hisobidan 1 semestrda kam bo'lmagan muddatda akademik mobillik dasturlari joriy etiladi. Har yili 30 nafar doktorantlarni xorijiy davlatlarning (Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya, Fransiya, Yaponiya) ilmiy tekshirish laboratoriyalarida vazirlik mablag'lari hisobidan stajirovkalari tashkil etiladi.

Barcha tibbiyot muassasalari byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan klinik ordinatura va magistratura talabalarining kontraktlari to'lab berish orqali shifokorlarga bo'lgan ehtiyojini qoplash amaliyoti joriy qilinadi. Impakt faktori yuqori bo'lgan xorijiy jurnallarda maqolalar chop etish uchun zarur bo'lgan mablag'lar qoplab beriladi. 8500 nafar doyani Turkiya hamda Belarus davlatlari standartlari asosida bepul qayta tayyorlash tizimi joriy qilinadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi
Matbuot xizmati.

«YAXSHI NIYAT BILAN INSON BARCHA MAQSADIGA YETADI»

Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomidagi teatr-konsert saroyida viloyat hokimi Xayrullo Bozorovning viloyatimiz yoshlari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda 900 nafardan ziyod turli sohalar vakillari bo'lgan faol yoshlar ishtirok etdilar.

Bugungi yoshlarning orzu-havaslar yuqori ekanini qayd etgan viloyat hokimi, yuqori bilim olish bilangina barcha maqsadlarga erishilishini ta'kidladi. Viloyat rahbari ta'lim bilan birga tarbiya uyg'unligini ta'minlash muhimligini aytib, tug'ilgan yurtning asrab-avaylash, ona Vatanni sevish, milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimizdan

meros bo'lgan ezgu urf-odatlarimizni asrash, o'zligimizni saqlash lozimligiga e'tibor qaratdi.

"Har ish niyatdan boshlanadi, niyatlar maqsadlarga, maqsadlar harakatlarga aylanadi. Agar yaxshi niyat qilib, to'g'ri yo'l bilan borib, tinimsiz harakat qilinsa inson barcha maqsadiga yetadi" -dedi viloyat rahbari.

Uchrashuv davomida o'z yutuqlari bilan Farg'onani rivojlantirish va yuksaltirish ishiga hissa qo'shib

kelayotgan, Vatanga muhabbat va sadoqat, tashabbuskorlik va tashkilotchilik borasida tengdoshlariga alohida namuna ko'rsatayotgan yoshlarning katta guruhi viloyat hokimining Tashakkurnomalari hamda sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Institutimizning yosh o'qituvchilaridan biri Shohrux Ahmadaliyev samarali mehnatlari va viloyatimiz ijtimoiy hayotidagi faol ishtiroki uchun e'tirof etildi.



«Biz aziz talabalarimizning yutuqlarini ko'rishdan doimo mamnun bo'lamiz va sizlarni qo'llab-quvvatlash bizning eng ustuvor vazifalarimizdandir»-

Akmal SIDIKOV

Institut konferents zalida "Rektor va yoshlar" uchrashuvi o'tkazildi. Unda oliygohimiz rektori, professor Akmal Sidikov talabalar bilan muloqot qildi. Uchrashuv erkin shaklda va ochiq muloqot tarzida o'tkazilib, unda ta'lim muassasamiz xodimlari, fakultet dekanlari, tyutorlar ishtirok etdi.

Dastlab, professor A.Sidikov taqdimot orqali institutimiz tomonidan o'tgan davr mobaynida bajarilgan ishlar, kelgusida amalga oshiriladigan rejalar xususida so'z yuritdi hamda oliygohimizga doir turli ko'rsatkichlar bilan barchani tanishtirdi.

Ilmiy laboratoriyamiz va simulyatsion markazdagi sharoitlardan unumli foydalanish, talabalarni ilmiy ishlarga jalb etish, xorijda ta'lim olish uchun yaratilgan imkoniyatlar rektorimiz nutqidan joy oldi.

Shuningdek, A.Sidikov kelgusi yilda Pediatriya fakulteti xalqaro akkreditatsiyada o'tkazilishi belgilanligini, talabalarning bilimlarini

mustahkamlash uchun institutimizga yangi tibbiy texnikalar olib kelinishini, USMLE online platformasi ishga tushirilishini, qolaversa, xalqaro hamkorlik aloqalari yanada kengayib borilishini mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tdi.

- Eng asosiy maqsadimiz tibbiy ta'lim sifatini oshirishdan iborat, - deydi A.Sidikov.

Quvonarlisi, kelgusi yilda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida ham talaba-yoshlar uchun Xalqaro olimpiyada o'tkazilishi belgilandi.

Rektorimiz bir qator xorij davlatlarining tibbiyot tajribalarini, yutuq va kamchiliklarini ishtirokchilar bilan o'rtoqlashgani esa uchrashuvning e'tiborli jihatlaridan biri bo'ldi.

Uchrashuvda talabalar muammolari, taklif va tashabbuslari tinglandi. Muammolarni hal etish bo'yicha tegishli rahbarlarga topshiriqlar berildi. Shuningdek, yoshlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollariga batafsil javob oldi.

REKTOR TALABALAR BILAN UCHRASHDI



TALABALARIMIZ XALQARO OLIMPIADADA MUVAFFAQIYATLI QATNASHDI

Samarqand davlat tibbiyot universitetida "Samarqand – 2020" tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining IV xalqaro olimpiadasi bo'lib o'tdi.

Unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya, Turkiya, Ozarbayjon, Belarus, Ukraina va mamlakatimizning tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari 670 nafar talabasi an'anaviy, 4141 nafar talaba onlayn tarzda qatnashdi. Shuningdek, olimpiadada oliy o'quv yurtlari rektor hamda

professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining IV xalqaro olimpiadasida ishtirok etuvchilar ikki bosqichda, test sinovlari va amaliy ko'nikmalarini namoyish etish orqali bahslashdi. Shu bilan bir qatorda an'anaviy tarzda qatnashayotgan talabalar o'z amaliy bilimlarini jahon standartlari talablariga javob beruvchi 7-avlod simulyatsion robotlari orqali sinovdan o'tkazdi. Xalqaro olimpiadada institutumizning jami 8 nafar talabasi ishtirok etib, muvaffaqiyatli qatnashdi. 4 nafar

talabamizga sovrinli o'rinlar nasib etdi.

Shuningdek, tadbir doirasida ilk bor Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi va xorijiy tibbiyot kollejlari o'quvchilari o'rtasida xalqaro olimpiada tashkil qilindi.

Olimpiadaning yopilish marosimida g'olib va sovrindorlar, faol ishtirok etgan va nominatsiya bo'yicha g'olib deb topilgan talabalar diplom, sertifikat hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Poytaxtimizda Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan tashkillangan «Tibbiyot mohirlari» III Xalqaro talabalar olimpiadasi o'tkazildi. Unda jami 8 nafar talabamiz ishtirok etdi.

Xalqaro olimpiadada xorijiy mamlakatlarning bir qator yetakchi tibbiyot tashkilotlari ishtirokchilari hamda Respublikamizning barcha tibbiyot oliygohlari talabalari qatnashdi.

Olimpiada doirasida Germaniyaning GIZ tashkiloti hamkorligida akademiya professori Xakimov Murod Shavkatovich tomonidan ishtirokchilar uchun «Kam invaziv jarrohlik: laparoskopik ko'nikmalarni shakillantirish» mavzusida master klass o'tkazildi.

Mazkur ilmlar bellashuvi negizida:

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz

tizimini takomillashtirish maqsadi mujassam. Olimpiada xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari: Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) va Koreya xalqaro sog'liqni saqlash jamg'armasi (KOFIH) bilan hamkorlikda o'tkazildi.

Xalqaro olimpiada barcha klinik fanlarni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

Talabalar fundamental tibbiyot, terapiya, jarrohlik, pediatriya, reproduktiv salomatlik, bosh-bo'yin kasalliklari, shoshilinch tez yordam, tibbiy-profilaktika yo'nalishlarida o'z

bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdilar.

Quvonarlisi shundaki, talabalarimiz turli tibbiy yo'nalishlar bo'yicha o'z bilimlarini sinovdan o'tkazib barcha jamoalar ichida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritishdi. Shuningdek, Muqaddasxon Ashurova (Gigiyena kafedra mudiri), Sardor Bobojonov (Ichki kasalliklar kafedrasida assistenti) maxsus sertifikatlar bilan taqdirlandi. Ma'lumot uchun, olimpiadada institutumizning 8 nafar talabasi 1 ta jamoa bo'lib ishtirok etdi.





BU DARGOHDA MALAKALI SHIFOKORLAR TAYYORLANADI

Ma'lumki, 2020-yili muhtaram Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tashkil etilgan edi. Bugun mazkur institut dunyoning 40 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik shartnomalarini tuzib, o'quv, ilmiy va ma'rifiy sohalarda doimiy aloqalarni yo'lga qo'ygan.

Institut shu qisqa davr mobaynida 2000 dan ortiq malakali shifokorlarni tayyorlab berishga erishdi.

Hozirda institutda 4 ta – xalqaro, davolash ishi, tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi hamda yaqinda yangi tashkil etilgan, 3 ta yo'nalishni o'z ichiga olgan pediatriya fakul'teti faoliyat olib bormoqda.

– Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi har tomonlama iqtidorli, ilg'or bilim-ko'nikma, ilmiy va amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarga bog'liq, – deydi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor Akmal Sidiqov.

– Ayni jihatlarni inobatga olib, o'qituvchilarimiz xorijning yetakchi ilmiy markazlari, universitetlar laboratoriyalari va klinikalariga tajriba almashish uchun jo'natilmoqda. Institutimizda uzluksiz ta'lim, ijobiy muhit, ta'lim-tarbiya va tartib-intizom yaxshi yo'lga qo'yilganligi bois ham yuqori natajalarga erishmoqdamiz.

Muassasamiz dunyoning Top-1000 talik Oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga ham kiritilgan. Yaqinda nufuzli «Round University Ranking –RUR» xalqaro reytingida Top-1000 ta OTMLar orasida ham alohida e'tirof etildi. Oliyoghimiz ta'lim, ilmiy tadqiqot, xalqaro hamkorlik, moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari va yana 20 ta indikator bo'yicha yuqori natija qayd etib,

25,234 ball to'pladi va 924-o'rinni qayd etdi. Joriy yilgi reytingda dunyoning 82 ta davlatidan 1500 ta oliy ta'lim muassasalari ishtirok etdi. Institutimiz O'zbekiston tibbiyot OTMLari orasida 1-o'rinni, barcha OTMLari orasida esa 9-o'rinni egallab, yuqori natijani qo'lga kiritgani ham biz uchun faxrlanarlidir. Bundan tashqari, o'tgan oyda institutimiz Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida akkreditatsiya va sifatni ta'minlash bo'yicha Yevroosiyo markazi tomonidan Xalqaro akkreditatsiyadan ham o'tdi.

Institutda 3 ta eng zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan talabalar turar joyi (yaqinda 344 o'ringa mo'ljallangan talabalar turar joyi foydalanishga topshirildi), eng

so'nggi rusumdagi asbob-uskunalar bilan jihozlangan ilmiy laboratoriya hamda Simulyasion markaz talabalar ixtiyoridadir. Ushbu ilmiy laboratoriyada bemorlar uchun qon topshirish, uni samarali tekshirish va tahlil qilish ham yo'lga qo'yilgan. Institut qoshidagi ilmiy diagnostika markazida xalq tabobati usullaridan foydalanish, turli infeksiyalarni aniqlash va tashxis qo'yish bilan birga, koronavirus bor-yoqligini bir zumda aniqlash imkonini beruvchi tibbiy jihozlar ham o'rnatilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Farg'ona viloyat hokimining tegishli qaroriga asosan aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatish va davolashning samarali tizimi hamda zamonaviy usullarini joriy etish, tibbiyot sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish maqsadida Farg'ona shahrida joylashgan 250 o'rinni 2-son shahar shifoxonasi negizida institut klinikasi tashkil etildi.

Ayni paytda bakalavriat yo'nalishlarida jami 4420 nafar talaba tahsil olmoqda. Ularning 639 nafari xorijlik talabalardir. Bundan tashqari, 39 nafar magistr, 346 nafar klinik-ordinatura talabalari ham tahsil olishmoqda.

Institutning xorijiy davlatlar bilan aloqani yaxshi yo'lga qo'yganligini 262 nafar professor o'qituvchilardan 20 nafarga yaqini xorijlik pedogoglar ekanligidan ham bilish mumkin. Institutda xalqaro fakul'tet talabalari uchun darslar to'liq ingliz tilida olib boriladi.

Bu yerda xalqaro hamkorlik yaxshi qo'yilganligini ham alohida e'tirof etib o'tish o'rindir. Jumladan, institutning 10 nafar turli mutaxassslik yo'nalishlaridagi professor-o'qituvchilari Rossiyaning Fan va oliy ta'lim vazirligi reanimasiya hamda reabilitatsiya federal ilmiy klinik markazi bilan tuzilgan shartnomaga asosan, Moskva shahrida xizmat safarida bo'lib qaytdilar. Tashrif doirasida delegatsiya a'zolari tibbiyot markazi reanimasiya bo'limlarida bo'lib, o'zaro tajriba almashishdi. Fan va oliy ta'lim vazirligining reanimasiya va reabilitatsiya binosidagi simulyasion markazda reanimasion yordam ko'rsatish usullari bo'yicha hamkorlikda amaliy tajribalar o'tkazildi.

Bu o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish maqsadidagi qo'yilgan dastlabki qadam bo'ldi, desak, adashmaymiz. Shu yilning mart oyida institut delegatsiyasi ilmiy tashrif bilan Hindistonda bo'lib qaytdi.

Safar davomida bir qator hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Biz nega Farg'onani tanladik?



Idjaz MUHAMMAD, Pokiston:

– Men Pokistonning Peshovar shahrida tavallud topganman. Hozirda ushbu institutning xalqaro fakul'teti davolash bo'limining 3-bosqichida tahsil olmoqdaman. Bu yerda talabalarning bilim

o'lishlari va yashashlari uchun yaxshi sharoitlar yaratilganligini menga shu yerda tahsil olayotgan do'stlarim yetkazishdi. Shuning uchun men shu yerni tanladim. Ta'lim maskanidagi ustozlarning biz, xorijlik talabalarga bo'lgan iliq munosabati, o'z farzandidek qabul qilishlari meni juda ham quvontiradi. O'qishimni tamomlab, tahsilni magistraturada ham davom

ettirmoqchiman.

Farg'ona menga juda yoqib qoldi, shu bois ham keyinchalik yaxshi mutaxassis bo'lib, shu yerda faoliyatimni davom ettirish niyatim ham yo'q emas.

Abdul Razak RASANA, Hindiston:

– Avvalo, institutimizda biz, talabalar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlarni alohida e'tirof etishni istardim. Chuqur bilim va salohiyatli ustozlardan saboq o'laymiz. Qolaversa, bu yerda ko'plab do'stlar orttirdim. Ular menga yurtimgizdagi ko'plab tarixiy obidalar, boy tarixga ega bo'lgan shaharlar, xalqingizning urf-odatlarini, qadriyatlarini haqida ko'p narsalarni aytib berishadi. Albatta, men uchun bu juda qiziq. Bizga birlashtirilgan tyutorlarimiz boshchiligidagi muzeylarga va tarixiy shaharlarga tez-tez sayohatlar qilyapmiz. O'zim ham do'stlarim bilan dam olish kunlari ko'hna Qo'qon shahriga, kulolchilik keng quloq yoygan Rishtonga borib, u yerdagi qo'lda tayyorlangan noyob san'at asarlarini ko'rib, kulollar bilan suhbatlashib, yurtimgizga bo'lgan muhabbatim yanada ortdi. Farg'onani o'z yurtimdek sevib qoldim.



Alphin VARGHASE, Hindiston:

– O'zbekistondagi eng nufuzli ta'lim dargohlaridan biri –Farg'ona jamoat salomatligi institutida tahsil olayotganimdan baxtiyorman. Malakali ustozlardan shifokorlik sir-sinoatlarini katta ishtiyoq bilan o'rganyapman. "Farg'ona – Markaziy Osiyoning gavhari", deb bejiz aytishmagan ekan. Darsdan bo'sh paytlarimizda shahar aylanamiz. Shu paytda mahalliy aholining bizga bo'lgan do'stona munosabatini qalban his qilamiz hamda kursdoshlarim bilan tahsil olish uchun O'zbekistonni tanlaganimiz to'g'ri tanlov bo'lganiga shukronalar aytamiz.



Dharth. N.REVI, Hindiston:

– O'zbekistonga kelish oldidan yurtimgiz haqida ijtimoiy tarmoqlar yordamida ko'p ma'lumot yig'ishga harakat qilganman. Bu yerga kelib, nafaqat yiqqan ma'lumotlarim o'z tasdig'ini topdi, balki taassurotlarim yanada boyidi.

Mehmondo'st aholi, mo'tadil iqlim, zamonaviy ta'lim jihozlariga ega oliy ilmgoh, qalbi daryo malakali ustozlar...


Muxtasar aytganda, bolalikdagi orzuim – shifokor bo'lishim uchun bu yerda barcha imkoniyatlarga ega ekanligimdan xursandman.



Sahifani A.SHOKIROV tayyorladi.

Institutimiz hayotidan

XURSHIDBEKKA FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING SOVG'ASI TOPSHIRILDI



Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Ulug'bek Soliyev yig'ilish o'tkazdi. Unda oliygohimizning dekan muovirlari, tyutorlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda turli masalalar muhokama etildi, kuni kecha prezidentimiz ishtirokida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda aytilgan fikrlar xususida so'z bordi.

Shuningdek, «Yoshlarga oid davlat siyosati» ning ijrosini ta'minlashdagi ijobiy xizmatlari hamda namunali xulqi va faolligi uchun Davolash ishi fakultetining 4-bosqich talabasi Xurshidbek Kishvarovga Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarovning maxsus tashakkurnomasi va esdalik sovg'asi topshirildi.

GENERAL-MAYOR AZIZBEK IKRAMOV TALABALAR YOTOQXONASIDA BO'LDI



Farg'ona viloyati IIB boshlig'i, general-mayor Azizbek Ikramov xorijlik talabalarimizning turar joyiga bordi va u yerdagi sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Boshqarma boshlig'i A.Ikramovni institutimizning birinchi prorektori Ulug'bek Saliyev hamda xalqaro fakultet xodimlari kutib oldi.

General-mayor A.Ikramov talabalar turar joyini ko'zdan kechirar ekan, talaba-yoshlar bilan suhbatlashdi, u yerda yaratilgan qulayliklardan, xorijlik talabalarining yashash sharoitlaridan mamnun ekanligini bildirdi.

Yangi yil munosabati bilan IIB tomonidan xorijiy talabalarimizning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida bayram tashkil etilishi aytib o'tildi.



OCHIQ DARS MASHG'ULOTLARI O'TKAZILDI

«Epidemiologiya va yuqumli kasalliklar» kafedrasida o'qituvchisi A. Abdug'aniyeva davolash ishi fakultetining 10-guruh talabalariga «Virusli gepatitlar epidemiologiyasi» mavzusida ochiq dars mashg'uloti o'tdi.

Gepatit mavzusini chuqur o'rganishga bag'ishlangan ushbu darsni turli kafedralarning bir guruh xodimlari tahlil qilib, kuzatib bordi.

Mashg'ulot davomida talabalar yuqoridagi mavzuga doir bo'lgan ma'lumotlar hamda tibbiyotda muhim sanalgan omillar haqida batafsil tushunchalarga ega bo'ldilar.



«Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasida» o'qituvchisi N.Saliyeva tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakultetining 3-bosqich talabalariga ochiq dars mashg'uloti o'tdi.

«Muloqot — kasbiy ta'lim faoliyatining asosiy kategoriyasi» mavzusini chuqur o'rganishga bag'ishlangan ushbu darsni kafedraning bir guruh xodimlari tahlil qilib, kuzatib bordi.

Mashg'ulot davomida talabalarimiz yuqoridagi mavzuga doir bo'lgan ma'lumotlar hamda tibbiyotda muhim sanalgan omillar haqida batafsil tushunchalarga ega bo'ldilar.



O'qituvchi Shohrux Ahmadaliyev tomonidan talabalariga «Kattalarda va bolalarda traxeya intubatsiyasini bajarish texnikasi» bo'yicha amaliy dars mashg'ulotlari olib borildi.

Mashg'ulotlar davomida talabalarimiz darslarda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda keng qo'llashni o'rganib, turli xil tajribalar o'tkazishmoqda. Shu o'rinda, Shohrux Ahmadaliyev tomonidan mavzuga oid bo'lgan aniq, faktik ma'lumotlar berilib, talabalarining tibbiy bilimlari yanada boyitildi.

«YANGI YILDA YANGICHA SHIRINLIKLAR»



Institutimizning tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti dekan o'rinbosari va tyutorlari tomonidan 3-sonli talabalar turar joyida talaba-qizlar ishtirokida «Yangi yilda yangicha shirinliklar» mavzusida bellashuv o'tkazildi.

Unda 7 nafar pazanda qizlar o'z mahoratlarini sinab ko'rib, turli xil tortlar tayyorladilar.

Eslatib o'tamiz, yaqinda ushbu fakultet dekani o'rinbosari Oltinoy Jo'rajonovna talabalarimizga tort tayyorlash borasida mahorat darsi o'tgan edi.

Yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda.

ELCHIXONA VAKILLARI OLYGOHIMIZDA



Hindistonning O'zbekistondagi elchixonasi vakillari va madaniyat markazi xodimlari institutimizda bo'ldi.

Ma'lumki, bugungi kunda institutimizda 600 ga yaqin hindistonlik talabalar tahsil oladi. Shu bois, institutimizda bag'rikenglik asosida Hindiston udumlari xorijlik talabalarimiz tomonidan nishonlanib kelinadi.

Mehmonlarni xalqaro fakultet dekani hamda tyutorlari kutib olib, institutimiz bilan qisqacha tanishtirdi.

Elchixona va madaniyat markazi xodimlari hindcha milliy madaniyat haqida so'zlab berdi, an'anaviy raqslarini namoyish etdi.

Tadbirda institutning barcha o'qituvchi va talabalari katta qiziqish bildirdi.

**Farg'ona jamoat salomatligi
tibbiyot instituti Matbuot xizmati.**

Viloyatimizda nima gaplar?



TOSHLOQDA TIG‘SIZ JARROHLIK AMALIYOTI YO‘LGA QO‘YILDI

Besh yoshli Nigina e‘tiborsizligi sabab tibbiyot ignasini yutib yubordi. Ko‘rsatilgan tezkor tibbiy yordamda aniqlanishicha, temir jism uning oshqozonida to‘xtab qolgan. Shifokorlarning amaliy harakati bilan qizaloq oshqozonidagi jism zamonaviy uskunalar yordamida tig‘siz olib tashlandi.

— Avvallari bu turdagi tibbiy yordam ko‘rsatish aksariyat hollarda jarrohlik amaliyoti asosida olib borilgan. Tabiiyki, bemorning oyoqqa turishi uchun birmuncha vaqt va mablag‘ sarflangan, — deydi Toshloq tumani ko‘p tarmoqli shifoxonasi funksional diagnostika shifokori Rahmatjon Oxunov. — Endilikda bu boradagi muolajalar zamonaviy gastrofibroskop yordamida tig‘siz amalga oshirish imkoniyati yaratilgani bemorlar og‘irini yengil qilmoqda.

Toshloq tumanida tibbiy xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar aholiga tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatini bermoqda. Tibbiyot binosida qabul-dagnostika, reanimatsiya, tug‘uruqxona, xirurgiya hamda terapiya bo‘limlari mavjud. Bemorlarni tashxislash uchun raqamli rentgen, zamonaviy UTT, gastrofibroskop, EKG apparatlari o‘rnatilgan.

— Tizimni isloh qilish, sohaga yangi innovatsiya va texnologiyalarni jalb etishga bo‘lgan e‘tibor oshdi, — deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Akmaljon Shermatov. — Shu kunga qadar barcha tibbiy xizmat turlari tarqoq joylashgani ko‘plab noqulayliklarga sabab bo‘lgan. Endilikda barcha xizmatlar bir joyga jamlandi. Shifoxonamizda bemorlar qabuli va davolanish bilan bog‘liq barcha shart-sharoit yaratilgan. Bu aholi salomatligini saqlash, kasallikni davolagandan oldini olish amallarida qo‘l kelmoqda.

“Quyi Yakkatut” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi 54-oilaviy poliklinika tuman markazidan ancha olisda joylashgan. O‘tgan asrning saksoninchi yillarida qurilgan bino bir necha yildirki ta‘mirlarga muhtoj. Chorak asrdan buyon o‘z holiga tashlab qo‘yilgan oilaviy

shifoxonada bemor va shifokorlar kundalik ish faoliyati uchun kerakli sharoitlar yo‘q edi. Aksariyat bemorlar muolaja olish uchun tuman markaziga borishga majbur bo‘lgan. Tuman tibbiyot birlashmasining mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan bildirgan taklifi “Open byudjet” portaliga joylanib, 8 ming 500 ta ovoz to‘plab, g‘olib bo‘ldi. “Toshloq qurilish ta‘mir” xususiy korxonasi tomonidan umumiy qiymati 1 milliard 200 million so‘mlik qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi.

— Oilaviy poliklinikamiz “Guzarboshi”, “Yakkatut”, “Uch olish”, “Xo‘jariqa”, “Soybo‘yi” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi 19 mingdan ortiq aholiga xizmat ko‘rsatib keladi, — deydi oilaviy poliklinika mudirasi Muhabbatxon Mirzaliyeva. — Endilikda tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha sharoitlar yaxshilandi. Xususan, o‘n o‘rinli kunduzgi shifoxona, qo‘shimcha ginekologiya, stomatologiya xizmatlari yo‘lga qo‘yildi. Keng va yorug‘ xonalar, markazlashgan isitish tizimi, quyosh panellari bilan jihozlangani aholiga har jihatdan malakali xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

“Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida tibbiy xizmat sohasiga bo‘lgan e‘tibor va



ajratilayotgan sarmoyalar miqdori ortib bormoqda. Shu kunga qadar loyihaning birinchi bosqichida ishtirok etgan “Jarqishloq” oilaviy shifokorlik punkti hamda tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikaga qo‘shimcha ma‘muriy bino qurish bo‘yicha bildirilgan takliflar g‘olib bo‘ldi.

— Prezidentimizning “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida “Yuqoriqishloq”, “Qalacha”, “Naymanbo‘ston”, “Bo‘ston” hamda “Teraktagi” mahalla fuqarolar yig‘inlarida bosqichma-bosqich mahalla tibbiy punktlari tashkil etish, jihozlar, zamonaviy aloqa vositalari, dori-darmonlar yetkazib berishga alohida e‘tibor qaratilmoqda, — deydi tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika mudiri o‘rinbosari Erkin Sodiqov. — Bu bir vaqtning o‘zida ikki mingga yaqin aholiga birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

Xo‘jaariq qishlog‘i tuman markazidan 15 chaqirim olisda joylashgan. Birlamchi tibbiy xizmatga ehtiyoj sezgan aksariyat fuqarolar shifokor ko‘rigidan o‘tish, muolaja olish uchun sakkiz kilometr

uzoqdagi 54-oilaviy poliklinikaga borishga majbur bo‘lgan. Olis yo‘l, noqulay ob-havo sharoitida bu juda qiyin edi. Endilikda bu boradagi masalalarga ijobiy yechim topildi.

— Qon bosimim ko‘tarilib turgani uchun shifokorlarga tez-tez murojaat qilib turaman, — deydi mehnat faxriysi Matlubaxon Kozimova. — Ammo oilaviy poliklinika yashash manzimizdan birmuncha uzoqligi uchun ko‘plab ovoragarchiliklarga duch kelamiz. Qishlog‘imizda tashkil etilgan yangi tibbiy xizmat ko‘rsatish punkti uzog‘imizni yaqin, og‘irimizni yengil qildi. Umrlaridan baraka topsin. Tibbiy ko‘rik, muolaja bilan bog‘liq barcha yordamlarni endi shu yerda olaypmiz.

Tashkil etilgan mahalla tibbiy punktlarida aholiga birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Shifokor qabuli, muolaja uchun maxsus o‘rin, elektr, sovuq va issiq suv, isitish tizimi kabi zarur infratuzilma tarmoqlari mavjud.

Sirasini aytganda, aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiy xizmat sifatini oshirish yo‘lida amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlar aholi farovonligi va istiqboliga xizmat qilayotgani bilan e‘tiborni tortadi.

R.KAMOLOV.

Bu yerda 175 o‘ringa ega 5 qavatli, zamonaviy ko‘p tarmoqli klinik xizmat ko‘rsatish shifoxonasi foydalanishga topshirildi. Tibbiy markaz qurilishi uchun 22,6 milliard so‘m mablag‘ sarflandi.



Bugungi kunda Janubiy Koreyadagi tibbiy klinikalar murakkab kasalliklarni davolash va tashxislashda tibbiy turizm bo'yicha jahon yetakchilari — Isroil, Germaniya va AQSh bilan muvaffaqiyatli raqobatlasha oladi. Janubiy Koreyada tibbiyot davlat tomonidan jiddiy nazorat qilinadi. Koreyadagi bemorlarni davolashga tijorat yondashuviga qaratilgan har qanday, hatto xususiy klinikalar ham davlat korporatsiyasi tomonidan nazorat qilinadi.

Koreya shifokorlari va shifoxonalari juda ilg'or va G'arb mamlakatlaridagi kabi eng yangi texnologiyalardan foydalanadilar. Koreyslar

uchun salomatlik juda jiddiy masala, shuning uchun ular eng kichik alomatlari bilan ham mahalliy shifoxonaga borishadi.

Seul, Posan, Tegu va boshqa yirik shaharlarda qimmat bo'lsa-da, yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatiladi. Koreyadagi shifoxonalar odatda yaxshi jihozlangan. Seulda boshqa shaharlardan ko'ra yuqori malakali stomatologlar ko'p. Yirik shifoxonalar ko'pincha gavjum va mutaxassis maslahati uchun ham uzoq vaqt navbatda kutishingiz kerak bo'ladi. Bu yerda chet el hamkorligidagi klinikalarni uchratishingiz mumkin. Shifokorlar odatda ingliz tilida gaplashadi.



Xorij tibbiyoti:

JANUBIY KOREYA

Shifoxonada bemor tibbiy yordam uchun kutilayotgan xarajatlarni qoplashga oldindan depozit qo'yiladi yoki ayrim hollarda kafolat xati talab qilinadi.

Milliy sog'liqni sug'urtalash korporatsiyasi Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot vazirligi nazorati ostida tibbiy sug'urta tizimini boshqaradigan yagona davlat sug'urtachisidir. 5 dan ortiq xodimi bo'lgan kompaniyalarda ishlaydigan chet elliklar ish joyida tibbiy sug'urta qilish huquqiga ega.

Janubiy Koreyada an'anaviy tibbiyot juda mashhur. Katta va kichik har bir shaharda an'anaviy koreys tibbiyot shifoxonasi mavjud. Qadimgi Xitoy tibbiyoti kabi noyob amaliyot va davolash usullarini ishlab chiqqan.

Aholi ko'proq sharq tabobatidan — akupunktur, moxibustion, aromaterapiya va meditatsiya kabi usullardan keng foydalanadilar. Qolaversa, maxsus parhez dasturlari mavjud.

Janubiy Koreya Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotiga a'zo davlatlar orasida shifokorlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi, natijada tashkilotga a'zo mamlakatlar orasida shifokorlarning maoshi eng yuqori hisoblanadi. Oddiy shifokor oyiga taxminan 3000-5000 AQSh dollari oladi. Yuqori ixtisoslashgan jarrohning bir oylik ish haqisi taxminan 20 000 AQSh dollari. Tajribali jarrohning maoshi Koreyadagi eng ko'p maosh oladigan uchta kasbdan biridir.

Mamlakatdagi shifokorlar tegishli ma'lumotlarni taqdim etgan 28 ishtirokchi davlat orasida eng ko'p maosh oladilar. Mutaxassislar yiliga o'rtacha 192,749 dollar

ishlab topadilar. Umumiy amaliyot shifokorlarining maoshi oltinchi o'rinni egallaydi.

O'z-o'zini ish bilan ta'minlovchi shifokorlarning yillik daromadi 2020 yil holatiga ko'ra, 298 800 dollarni tashkil etdi. Ma'lumotlar taqdim etilgan yetti mamlakat orasida bu Belgiyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi, uning yillik maoshi 2021 yilga kelib 337 931 dollarni tashkil qildi.

Janubiy koreyalik shifokorlar OECDning boshqa mamlakatlaridagi hamkasblariga qaraganda ko'proq maosh olishining asosiy sababi, sog'liqni saqlash xizmatlariga talab katta bo'lgan sharoitda tibbiyot xodimlarining nisbiy tanqisligi bo'lib ko'rinadi.

Koreya Respublikasi milliy tibbiy sug'urta tizimi va tibbiyotning rivojlanishi bo'yicha dunyo miqyosida 4-o'rinda turadi. 40 yillik tajribaga ega mamlakat tibbiy sug'urta tizimi halqaro tamoyillar asosida izchil takomillashib bormoqda.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, bu yerda aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 83,5 yoshga teng. Olimlar 2030 yilga borib, ushbu ko'rsatkich ayollar o'rtasida 90 yoshga yetishini prognoz qilmoqda. 60 yil muqaddam mazkur raqamlar bor yo'g'i 53 yoshni tashkil etgani inobatga olinsa, Koreyada tibbiy xizmatlar sifati yil sayin jadal o'sib borayotgani yanada oydinlashadi. Bu, avvalo, mamlakatda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, diagnostika va davolash jarayonlariga tatbiq etilayotgan innovasion texnologiya hamda ilg'or yondashuvlar bilan bog'liq.

I.ABDUJABBOV.

Janubiy Koreyada tibbiyot xodimlarining o'rtacha oylik maoshi qancha?

Stomatolog	\$3 400
Shifokor	\$3 000
Hamshira	\$1 800

Manba: "Yagona viza markazi" nashri

QIZIQARLI FAKT:

Seul kosmetik jarrohlarning poytaxtidir. 2000 nafar ro'yxatdan o'tgan mutaxassislar ja'm bo'lishgan va yiliga 4,4 milliard yevrolik tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Janubiy koreyaliklarning 20 foizi asosan ko'z qovoqlarini yaxshilash uchun (blefaroplastika) estetik jarrohlilik amaliyotini o'tkazgan.



JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
Farg'ona viloyati hududiy
boshqarmasi tomonidan
6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam
bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOV

Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru

fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

BOSMAXONA MANZILI:
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.
Bosmaxonaga 23.12.2023 yil, soat 16 00 da
topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 500